



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODEL	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAIT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ TAJIRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	354
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna	
XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	358
Alimova Dildora Damirovna	
BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	363
Rajabov Oybek Panjievich	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	367
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
BOZOR KONYUNKTURASIGA MOS PIYOZ YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	371
Sadikova Shohida Obidqul qizi	
HUDUDLARDA MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI KLASTERLASH VA RESURS SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	375
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
XUSUSIY VA KORPORATIV TUZILMALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI HAMDA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI	380
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	
YIRIK VA KICHIK BIZNES O'RTASIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	385
Nasirova Kamola Alimovna	
MOLIYAVIY HISOBOTLARNING QAROR QABUL QILISH JARAYONIDAGI IQTISODIY ROLI	394
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Yahyayeva Ra'no Raximovna	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INVESTMENT POLICY IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY (EXPERIENCE OF UZBEKISTAN)	400
Khatamov Nurbek Achildiyevich, Sharifi Abdul Fatah	
DAVLATNING FISKAL VA MONETAR SIYOSATI UYG'UNLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH	405
Uralov Shavkat Maxramovich	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BIZNES JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	410
Yusubov Muzaffar Alimbayevich	
BANKLARDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONINING MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASIGA TA'SIRI	414
Ro'ziboyev Shuxrat Komilovich	
BOJ-TARIF SIYOSATI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY YO'NALISHLAR	418
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHDA BOSHQARUV KADRLARINING KOMPETENSIYASI	424
Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich	



ZIYORAT TURIZMIDA DESTINATSIYA VA GEOAXBOROT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	433
Qosimov Jahongir Ro'ziboyevich, Suyunova Nilufar	
YEVROPA DAVLATLARIDAGI KORXONALARDA MOLIVAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI VA ULARDAN O'ZBEKISTON MOLIVA TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	440
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
TASHKILOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISH	446
Xasanov Odilxon Kaxxorovich	
O'ZBEKISTON TURIZM SANOATINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	450
Kobilova Shozoda Timurovna, Isxakova Sarvar Ayubovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LABOR THEORY: EVOLUTION, CHALLENGES AND FUTURE PROSPECTS.....	456
Tukhliyev Bakhodir Adinaevich	
ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА ПЕРВОГО ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В СИСТЕМЕ УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	460
Астанов Зафар Муродуллаевич	
TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR PLATFORMALARINI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	466
To'xtamisheva Dilrabo Shermonovna	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI	472
Norboyev Sarvar Azodovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	476
Xatamova Manzura Ochilidievna, Safarov Botir Isaq o'g'li	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	482
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PUL MUOMALASI BARQARORLIGIGA TA'SIRINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	487
Xazratkulov O'ktamjon Xikmatullayevich	
O'ZBEKISTONDA TAKSI XIZMATLARI BOZORIDA INSTITUSIONAL ISLOHOTLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	491
Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li	
EKOLOGIK TANGLIK SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YERLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	497
Kudiyarov Aybek Alisherovich	
BANK LIKVIDLIGINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR	502
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT ISHLAB CHIQRISH TARKIBIY O'ZGARISHLARNI BAHOLASH.....	509
Almardanova Farzona Tulkin qizi, Kasimov Azamat Abdurkarimovich	
QUYI AMUDARYO IQTISODIY MINTAQASI CHEGARABO'YI HUDUDLARINING TURISTIK IMKONIYATLARI.....	515
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
SURXONDARYO VILOYATIDA ULGURJI SAVDO HAJMI KO'RSATKICHLARINI ARIMA MODEL YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH.....	522
Turotova Sohiba Djumanazarovna	
MINTAQADA INNOVATSION USULDA BALIQ YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	531
Davranov Odil Jumanazarovich	



ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXINING BOSHQARUV TAHLILINI AMALGA OSHIRISH USULLARI	538
Xamidova S.Ya.	
STRATEGIES FOR INCREASING COMPETITIVENESS IN DEVELOPING EXPORT ACTIVITIES IN SMALL ENTERPRISES.....	544
Nasridinova Shokhida Taufikovna	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR	551
To'g'onov Ibroximxo'ja	
XUSUSIY TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY RESURLARINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	555
Xolmatov Dilmurod Maxmudjonovich	
PENSIYA JAMG'ARMASI DAROMADLARI SHAKLLANISHI MASALALARI.....	562
Sherjonov Doniyor Saparbaevich	
EKSPORT VA VALYUTA OPERATSIYALARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	566
Sobirova Xilola Rustam qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO AYLANMASI HAJMI KO'RSATKICHLARINI ARIMA MODEL YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH.....	571
Qudratova Shahnoza Shuhrat qizi	
XO'JALIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	579
Valijonov Akmaljon	
XIZMATLAR IQTISODIYOTI VA UNI RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI	584
Abduxoliqova Farangiz Abduxoliq qizi	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI: HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	588
Kuvandikov Shuxrat Oblokulovich, Abduxalikova Komila Abduxalikovna	
ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДОВ КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ ПО ВИДАМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (АВС) И ЦЕЛЕВОГО КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ (ТС) КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	595
Киличева Ф.Б.	
GAZ TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	601
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
SOLIQ NAZORATI TIZIMI: IQTISODIY MOHIYATI, SHAKLLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	606
Donaboyev Dostonbek Xusan o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ ПРИБЫЛЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ЕГО ФИНАНСОВОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	610
Агзамов Авазхон Талгатович, Алиева Сусанна Сейрановна	
NOBANK KREDIT TASHKIOTLARINING AKTIV OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	618
Sardor Karimov Boydulla o'g'li	
INVESTITSION JOZIBADORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSIYA NAZARIYALARI INTEGRATSIYASI	624
Abdullayeva Nilufar Ruslanovna	
QURILISH KORXONALARINI KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI VA UNI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	630
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
OPEN BANKING AS A DRIVER OF FINANCIAL INNOVATION AND INCLUSION IN UZBEKISTAN'S BANKING SECTOR.....	637
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Asadbek Ergashov	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BOSHQARISH VOSITALARI	642
Sadikov Q.M.	



TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BOSHQARISH VOSITALARI

Sadikov Q.M.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tatqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish jarayonida bank menejmenti mexanizmlarining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishda boshqaruv usullari, xususan aktiv va passivlarni boshqarish, likvidlikni ta'minlash, kredit hamda depozit siyosati, risklarni boshqarish mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalar muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bank menejmentida innovatsion yondashuvlar va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi takomillashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish hamda ularning strategik ustuvorliklarini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy resurslar, bank menejmenti, aktivlar va passivlar, likvidlik, kredit siyosati, depozit siyosati, risklarni boshqarish, innovatsion texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the importance of bank management mechanisms in the process of managing financial resources of commercial banks. Particular attention is paid to management methods that ensure financial stability and enhance competitiveness, including asset and liability management, liquidity management, credit and deposit policies, risk management mechanisms, and the application of modern technologies. In addition, innovative approaches in bank management and improvement directions aimed at ensuring the efficient use of financial resources are substantiated. The research findings have practical significance for optimizing the activities of commercial banks and shaping their strategic priorities.

Key words: commercial banks, financial resources, bank management, assets and liabilities, liquidity, credit policy, deposit policy, risk management, innovative technologies, financial stability, competitiveness.

Аннотация. В данной статье научно проанализировано значение механизмов банковского менеджмента в процессе управления финансовыми ресурсами коммерческих банков. Особое внимание уделено методам управления, обеспечивающим финансовую устойчивость и повышение конкурентоспособности банков, включая управление активами и пассивами, поддержание ликвидности, кредитную и депозитную политику, механизмы управления рисками, а также внедрение современных технологий. Кроме того, обоснованы инновационные подходы в банковском менеджменте и направления совершенствования, направленные на эффективное использование финансовых ресурсов. Результаты исследования имеют практическое значение для оптимизации деятельности коммерческих банков и формирования их стратегических приоритетов.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовые ресурсы, банковский менеджмент, активы и пассивы, ликвидность, кредитная политика, депозитная политика, управление рисками, инновационные технологии, финансовая устойчивость, конкурентоспособность.

KIRISH

O'zbekistonda bank va moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar sharoitida tijorat banklari aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Jumladan, kassa aktivlari ulushining yuqoriligi, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun ajratiladigan



zaxiralarning salmoqli hajmi, foiz daromadlarining o'zgaruvchanligi, shuningdek investitsiya faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi bank aktivlarining daromadlilikiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda “O'zbekiston – 2030” strategiyasida bank tizimini chuqur isloh qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kapitallashuv va depozit bazasini kengaytirish, shuningdek istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishni kengaytirish muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu ustuvor yo'nalishlarni samarali amalga oshirish, o'z navbatida, bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Mazkur yo'nalishdagi chuqur tahlil va izlanishlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini boshqarish vositalarini o'rganishga qaratilgan mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlari bank faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, B. Berdiyarov o'z tadqiqotlarida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, jumladan, yalpi daromad tarkibida foizli daromadlar ulushini ko'paytirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

D. Saidov bank rentabelligini oshirish vositasi sifatida qisqa muddatli kreditlash amaliyotining ahamiyatini ta'kidlaydi.

A. Omonov esa bank resurslari tuzilmasidan oqilona foydalanish va ularni optimallashtirish orqali bank daromadlilikini oshirish imkoniyatlarini o'rganadi. A.A. Omonov tomonidan tayyorlangan “Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish” (2010) nomli monografiyada bank resurslarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek bank menejmentining asosiy tamoyillari yoritib berilgan.

Shuningdek, Sh.Z. Abdullayeva, T.M. Qoraliyev va U.D. Ortiqov muallifligidagi “Bank resurslari va ularni boshqarish” (2009) nomli asarda bank resurslarini shakllantirish va boshqarish uslublari hamda tijorat banklarida moliyaviy menejmentning o'rni tahlil qilingan.

Banklar faoliyatining samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan klassik tadqiqotlar, asosan, kapital va rentabellik ko'rsatkichlari hamda umumiy aktivlar rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga asoslangan.

Xorijiy tadqiqotchilardan Metyu Osborn, Ana-Mariya Fuertes hamda Buyuk Britaniyaning moliyaviy tartibga solish va nazorat organi vakili Alistar Milne tomonidan olib borilgan tadqiqotlar AQSh tijorat banklari misolida kapitaldagi o'zgarishlarning bank daromadlariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan.

O.I. Lavrushinning “Bankovskiy menedjment” (2009) nomli asarida bank menejmentining nazariy konsepsiyalari, bank faoliyatini boshqarish usullari va mexanizmlari keng yoritilgan.

Shuningdek, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “Guidelines on Corporate Governance Principles for Banks” (2015) nomli hujjatda banklar uchun korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari hamda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish mezonlari belgilab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning bank aktivlarining moliyaviy samaradorligini boshqarish vositalariga oid mavjud ilmiy-nazariy qarashlari har tomonlama tahlil qilingan hamda ularning asosiy yondashuvlari baholangan. Shuningdek, Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida tavsiya etilgan tijorat banklari samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik hamda boshqaruv tavsiyalaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatini yuritish va tartibga solish normativ-huquqiy hujjatlar, ichki qoidalar hamda boshqaruv mexanizmlarini belgilovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonunida bank daromadlari va xarajatlarning asosiy tarkibiy qismlari, shuningdek ularni boshqarish bo'yicha umumiy qoidalar belgilab berilgan. Mazkur qonun tijorat banklariga o'z daromadlarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va uni bank siyosatida aks ettirish majburiyatini yuklaydi.

Tijorat banklari samaradorligini oshirishda amaldagi metodologiya quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayanadi:

- milliy buxgalteriya standartlariga muvofiq daromad va xarajatlarni aniq tasniflash;
- kredit resurslari, kapital hamda boshqa jalb qilingan mablag'lar qiymatini aniqlash;
- bozor narxlarini baholash jarayonida “ortiqcha xarajatlar”, “mijozlarning to'lov qobiliyati” va “risklar uchun mukofot” kabi tamoyillardan foydalanish.



1-jadval. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi samaradorlik ko'rsatkichlari

Sana	Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati	Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati
1	4	5	6	7
01.01.2021 y.	3,8	5,1	4,6	4,5
01.01.2022 y.	3,7	5,1	4,4	4,2
01.01.2023 y.	4,3	6,2	5,1	4,9
01.01.2024 y.	4,4	6,2	5,2	4,9
01.01.2025 y.	4,4	6,4	5,2	4,9

Ushbu ko'rsatkichlarni yillar kesimida tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

1. Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati (4-ustun): 2021-yilda mazkur ko'rsatkich 3,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda 4,3 foizga (2023-yil) hamda 4,4 foizga (2024–2025-yillar) oshgan. Ushbu o'sish bank aktivlarining foizli daromad keltirishdagi samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Ko'rsatkichning 2024–2025-yillarda barqarorlashuvi bank tizimida jami aktivlardan olinayotgan daromadlilikning muayyan darajada saqlanib qolganini anglatadi.

2. Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati (5-ustun): 2021–2022-yillarda ushbu ko'rsatkich 5,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 6,2 foizga oshgan va 2025-yilda 6,4 foizga yetgan. Bu kredit qo'yilmalarining daromadlilik darajasi oshganini hamda banklar kredit portfelidan yanada yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur holat banklarning foiz siyosatini optimallashtirish borasida ijobiy natijalarga erishganini bildiradi.

3. Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati (6-ustun): 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 4,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 5,1 foizga, 2025-yilda esa 5,2 foizga yetgan. Bu banklarning majburiyatlar bo'yicha daromadlari oshib borayotganini ko'rsatadi. Majburiyatlar tarkibining diversifikatsiyalanishi hamda nisbatan past xarajatli resurslarni jalb qilish ulushining ortishi ushbu ko'rsatkich yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

4. Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati (7-ustun): 2021-yilda 4,5 foizni tashkil etgan ko'rsatkich 2023–2025-yillarda 4,9 foiz darajasida barqarorlashgan. Bu sof foizli marjaning o'sishidan so'ng bank tizimida rentabellikning barqaror saqlanib qolganini ko'rsatadi. Foizli daromadlar va foiz xarajatlari o'rtasidagi farqning barqarorlashuvi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekiston bank tizimida samaradorlikni oshirish yo'lida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilayotganini ko'rsatadi. Sof foizli daromadlarning jami aktivlar va kredit qo'yilmalariga nisbati izchil oshib borgan. Majburiyatlar bo'yicha daromadlarning ko'payishi bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, sof foizli marjaning barqarorlashuvi banklarning moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga qaratilgan izchil siyosatini aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkichlarning yaxshilanishi bank tizimining iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikni qo'llab-quvvatlashdagi barqaror va ijobiy rivojlanish yo'nalishini namoyon etadi.

Mazkur metodlar amaliyotda muayyan samaradorlikka ega bo'lsa-da, ayrim hollarda mavjud resurslar va bozor imkoniyatlarini yetarli darajada chuqur tahlil qilmaslik banklar tomonidan yanada samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Bu jarayonda regulyatorlar va bozor ishtirokchilarining ehtiyotkor yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida tijorat banklarining kredit portfeli, risklarni baholash tizimi, zaxira siyosati hamda likvidlik ko'rsatkichlari muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda mazkur mezonlar Markaziy bank tomonidan milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda qo'llaniladi. Tijorat banklari har oyda Markaziy bankka bank faoliyati, kapital yetarliligi, kredit portfeli va daromad manbalari bo'yicha batafsil hisobotlar taqdim etadi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori, derivativlar va valyuta operatsiyalari orqali daromad olish imkoniyatlari hozircha to'liq shakllanmagan. Shunga qaramay, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida moliyaviy bozorlarni rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, qimmatli qog'ozlar emissiyasini kengaytirish, moliyaviy instrumentlarni joriy etish, IPO jarayonlarini rivojlantirish, sug'urta va boshqa moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror depozit bazasi va sodiq mijozlar bank samaradorligining izchil o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Korporativ mijozlar moslashuvchan va ko'p funksiyali moliyaviy xizmatlarga yuqori talab bildirsa, davlat korxonalari asosan minimal komissiya xarajatlari bilan bog'liq xizmatlardan foydalanishni afzal ko'radi.



Hozirgi kunda xorijiy banklar faoliyatida komissiya daromadlariga tayanish tendensiyasi kuchayib bormoqda, chunki ushbu daromadlar foiz daromadlariga nisbatan barqarorroq va risk darajasi pastroq hisoblanadi. Biroq O'zbekistonda ushbu daromadlar ulushi 2020–2024-yillar davomida 33 foizdan 27 foizga qisqargan.

Qimmatli qog'ozlar va valyuta operatsiyalari O'zbekistonda daromad manbai sifatida hozircha cheklangan darajada qo'llanilmoqda. Fond bozorining rivojlanish bosqichida ekanligi, spekulativ operatsiyalarga qo'yilgan cheklovlar hamda valyuta nazoratining qat'iyligi bunga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, valyuta aktivlarini qayta baholashdan olinadigan daromadlar banklar uchun muhim qo'shimcha tushum manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini boshqarish metodologiyasi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, uni takomillashtirish bozor mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, normativ-huquqiy asoslarni yangilash hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etishni talab etadi. Foizli va foizsiz daromadlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, mijozlar ishonchini mustahkamlash, xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash bank rentabelligining asosiy tayanch omillari hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlarining samaradorligi bank foydasini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko'rsatkich bankning kreditlash va investitsiya faoliyati yo'nalishlari, risklarni boshqarish darajasi hamda mavjud moliyaviy resurslardan qanchalik oqilona foydalanilayotganini baholash imkonini beradi.

Moliyaviy samaradorlikning oshishi bank faoliyatining umumiy moliyaviy natijalariga, kapital aylanishining tezlashishiga va moliya bozorida raqobatbardoshlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bois tijorat banklarida samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va moliyaviy resurslardan foydalanishni optimallashtirish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 30-iyundagi 19/1-son Qarori "Tijorat banklari faoliyatini baholash mezonlari to'g'risida"gi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bank nazorati to'g'risida"gi Nizomi (amaldagi tahrir).
5. Omonov A. Tijorat banklari faoliyati. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2020. – 248 b.
6. Saidov D.S. Bank statistikasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 268 b.
7. Berdiyarov B. Kredit siyosatini optimallashtirish orqali tijorat banklari daromadlarini oshirish yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. – 2022. – №3.
8. Лаврушин О.И. Управление банковскими активами: теория и практика. – Москва: Юнити-Дана, 2022. – 268 с.
9. Zenchenko S.V., Rubtsova L.N., Loshakov K.V., Radyukova Yu.V. Regional financial security as a basis for sustainable economic development of the region // Proceedings of the Volgograd State University International Scientific Conference: Competitive, Sustainable and Safe Development of the Regional Economy (CSSDRE 2019). – 2019. – AEBMR: Advances in Economics, Business and Management Research. – Vol. 83. – P. 432–435.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti – www.cbu.uz (statistik ma'lumotlar, normativ hujjatlar va bank tizimidagi yangiliklar).
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti – www.stat.uz (iqtisodiy ko'rsatkichlar va banklar faoliyati bo'yicha rasmiy statistika).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>